

JAMOAT TRANSPORTIDA IJTIMOIIY ETIKA VA HUQUQIIY MAJBURIYAT

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

1-kurs talabasi **Dilfuza Ismonova Muzaffar qizi**

Annotatsiya.

Mazkur maqolada jamoat transportida keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yosh bolali ayollarga joy berish masalasining huquqiy va axloqiy jihatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar hamda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada jamoat transportidagi ijtimoiy mas’uliyat, huquqiy madaniyat va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat transporti, huquqiy madaniyat, ijtimoiy etika, keksalar, yo‘lovchi huquqlari, transport qoidalari, milliy qadriyatlar.

KIRISH.

Zamonaviy jamiyatda jamoat transporti faqatgina transport vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlar shakllanadigan muhim makon sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yosh bolali ayollarga nisbatan munosabat jamiyatning huquqiy madaniyati va ma’naviy saviyasini ko‘rsatuvchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Jamoat transportida joy berish masalasi ko‘pincha axloqiy odob sifatida baholanadi. Biroq ayrim davlatlarda mazkur munosabatlar huquqiy normalar orqali ham tartibga solingan. Shu nuqtai nazardan, ushbu masalaning huquqiy va ijtimoiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda jamoat transportida imtiyozli o‘rinlar tizimi borasidagi taxlillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat transportida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun maxsus o‘rinlar ajratish amaliyoti qonunchilik asosida yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan shahar

yo'lovchi transportidan foydalanish qoidalarida avtobus va boshqa jamoat transporti vositalarida keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda yosh bolali yo'lovchilar uchun maxsus joylar ajratilishi belgilangan.

Amalda avtobus va metro vagonlarida "Keksalar va nogironlar uchun" degan belgilar bilan ajratilgan o'rinlar mavjud. Transport vositalarida ovozli eslatmalar orqali ham ushbu toifadagi shaxslarga joy berish lozimligi doimiy ravishda e'lon qilinadi. Bu esa jamoat transportida huquqiy tartib va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Masalan, Toshkent metropolitenida har bir vagonida imtiyozli toifadagi fuqarolar uchun maxsus belgilangan o'rinlar joylashtirilgan bo'lib, ushbu amaliyot yo'lovchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Joy berish: huquqiy norma yoki axloqiy burch?

Jamoat transportida joy berish nafaqat huquqiy talab, balki milliy qadriyat va axloqiy me'yor sifatida ham baholanadi. O'zbek xalqining madaniy an'alarida keksalarga hurmat ko'rsatish muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Shu sababli transportda joy bo'shatib berish ko'p hollarda fuqarolik madaniyati va tarbiya belgisi sifatida qabul qilinadi.

Huquqshunoslik nuqtai nazaridan mazkur munosabat ikki omil uyg'unligida namoyon bo'ladi:

- **Huquqiy omil** – imtiyozli toifadagi shaxslar uchun maxsus joy ajratilishi;
- **Axloqiy omil** – jamiyat a'zolarining ichki madaniyati va vijdoni.

Bu holat huquq va ma'naviyatning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Qonun muayyan tartibni belgilasa, jamiyatning ma'naviy qadriyatlari uning samarali amal qilishini ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba tahlili.

Jamoat transportida keksalarga joy berish masalasi turli davlatlarda turlicha tartibga solinadi.

Yaponiya tajribasi

Yapon jamoat transporti tizimida “Priority Seats” deb nomlanuvchi maxsus o‘rinlar mavjud. Ushbu o‘rinlar keksalar, homilador ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ajratilgan. Biroq yapon jamiyatida ayrim keksalar o‘zlariga joy taklif qilinishi orqali “zaif” inson sifatida qabul qilinishi mumkinligidan xavotirlanib, bunday taklifni rad etish holatlari ham uchraydi. Bu holat mamlakatda mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tushunchasi yuqori darajada shakllanganini ko‘rsatadi.

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya jamoat transportida keksalar uchun ajratilgan maxsus o‘rinlarga nisbatan juda yuqori ijtimoiy hurmat shakllangan. Amalda yoshlar ushbu o‘rinlar bo‘sh turgan taqdirda ham ularga o‘tirmaslikka harakat qiladi. Bu esa jamiyatda kattalarga hurmat madaniyati institutsional darajaga chiqqanini anglatadi.

Avstraliya tajribasi

Melburn shahri jamoat transporti qoidalarida ehtiyojmand shaxslarga joy bermaslik uchun ma‘muriy javobgarlik choralari belgilangan. Transport qoidalarini buzgan yo‘lovchilarga jarima qo‘llanilishi mumkin. Bu yondashuv huquqiy majburiyat mexanizmining kuchli ekanligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamoat transportida ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga joy berish masalasida davlatlar ikki asosiy modeldan foydalanadi:

- huquqiy majburiyatga asoslangan model;
- ijtimoiy madaniyat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan model.

O‘zbekiston tajribasida mazkur ikki yondashuv uyg‘unlashgan holda amal qilmoqda. Bir tomondan, qonunchilikda imtiyozli o‘rinlar ajratish belgilangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy mentalitet va oilaviy tarbiya omillari ushbu qoidalarning amaliy samaradorligini ta‘minlamoqda.

Shu bilan birga, jamoat transportida ayrim hollarda keksalarga joy berilmasligi kuzatilmoqda. Bu esa aholi orasida huquqiy madaniyat va ijtimoiy mas‘uliyatni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA.

Jamoat transportida keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yosh bolali ayollarga joy berish nafaqat ijtimoiy etika, balki huquqiy madaniyatning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. O‘zbekistonda mazkur munosabatlar huquqiy normalar va milliy qadriyatlar uyg‘unligi asosida shakllangan.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda huquqiy ong va ma’naviy madaniyat yuqori bo‘lgan davlatlarda bunday munosabatlarni ta’minlash uchun qattiq jazo choralari talab etilmaydi. Shu sababli aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida transport madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish orqali jamoat joylarida o‘zaro hurmat muhitini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shahar yo‘lovchi transportidan foydalanish qoidalari.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
- 3.[Toshkent metropoliteni rasmiy sayti](#)
- 4.[Lex.uz milliy qonunchilik bazasi](#)
- 5.Giddens A. Sociology. – London: Polity Press, 2021.
- 6.Durkheim E. The Division of Labour in Society. – New York: Free Press.